

INGLIZ VA O‘ZBEK NASRIY ASARLARIDA PAREMIYALARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Maxammadjonova Shohista Abdullajon qizi

Lingvistika Ingliz tili fakulteti

turgunboyevashohista943@gmail.com

Annotatsiya: mazkur tezisda ingliz vz o‘zbek nasriy asarlarida uchraydigan paremiyalarning leksik-semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Paremiyalarning badiiy matndagi vazifasi, obrazlilik darajasi, denotativ va konnotativ ma‘nolari, shuningdek, milliy-madaniy tafakkur ifodasi ochib berilib, ularning asar g‘oyaviy tizimidagi o‘rni asoslanadi.

Kalit so‘zlar: paremiya, leksik-semantik tahlil, badiiy matn, obrazlilik, milliy-madaniy xususiyat, qiyosiy tahlil, semantik ma‘no.

Kirish

Paremiyalar har bir xalqning asrlar davomida shakllangan donishmandligi, dunyoqarashi va mentalitetini aks ettiruvchi muhim til birliklaridir. Ular badiiy nasriy asarlarda qahramon xarakterini ochishda, muallif pozitsiyasini ifodalashda va matnning ta‘sirchanligini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Paremiyalarga maqollar, matallar, hikmatli so‘zlar, aforizmlar kirdi. Ularning asosiy xususiyati umumlashtirilgan hayotiy xulosani badiiy obraz orqali ifodalashidir. Paremiyalar tayyor holda qo‘llanilishi bilan oddiy so‘z birikmalaridan farq qiladi. Bunday birliklar o‘zgarimas shaklda ishlatiladi va shu jihati bilan barqarorlik xususiyatiga ega. Paremiyaning semantik mazmuni ularning tarkibidagi alohida so‘zlarning yig‘indisidan iborat bo‘lmay, balki umumlashtirilgan, ko‘chma va ramziy ma‘no asosida idrok etiladi. Shu sababli u yaxlit semantik butunlik sifatida matndan ajratib olinganda ham o‘z mazmunini saqlab qoladi. Paremiyalarning mazmunida obrazlilik kuchli bo‘lib, ko‘pincha qiyoslash, metafora va ramzlar orqali fikr ifodalanadi. Bunday obrazli ifoda paremiya nutqining ta‘sirchanligini oshirib, unga ekspressiv rang bag‘ishlaydi. Shu bilan birga, paremiyalar didaktik yo‘nalganlikka ega bo‘lib, pand-nasihat, ogohlantirish yoki hayotiy maslahat mazmunini o‘zida mujassam etadi.

Adabiyot tahlillari va metodologiya

Paremiyalarning leksik-semantik tahlili deganda ularning maqol, matal va hikmatli iboralarning tarkibidagi so‘zlarning ma‘nosi, ularning o‘zaro bog‘lanishi hamda paremiya butunligida hosil bo‘ladigan umumiy mazmunni ilmiy asosda o‘rganish jarayoni tushuniladi. Bunday tahlilda paremiya oddiy ibora sifatida emas, balki yaxlit semantik birlik

sifatida ko'riladi. Avvalo, paremiya tarkibidagi asosiy leksik komponentlar aniqlanadi va ularning bevosita (denotativ) hamda ko'chma (konnotativ) ma'nolari izohlanadi. Quyidagi ikki asar – Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” va Charles Dikensning “Oliver Twist” romanlari orqali paremiyalar leksik-semantik tahlilini ko'ramiz. Har ikkala romanda uchraydigan paremiyalar mazmun doirasiga ko'ra bir nechta muhim semantik qatlamlarni tashkil etadi. Ular orasida axloqiy qadriyatlarni targ'ib etuvchi, insonni sabr-toqatga chorlovchi, mehnatni ulug'lovchi, shaxs xarakterining shakllanishini izohlovchi hamda jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarni yorituvchi birliklar alohida o'rin tutadi. Mazkur semantik qatlamlar paremiyalarning faqat nutqiy bezak emas, balki asar g'oyaviy tizimining muhim bo'lagi ekanini ko'rsatadi.

“O'tkan kunlar” romanida qo'llangan “Er yigitga ellik hunar oz” paremiyasi shaxsni baholash mezonini sifatida hunar va mehnatni markaziy o'ringa qo'yadi. Bu paremiya orqali muallif insonning jamiyatdagi mavqeyini boylik yoki nasab emas, balki kasb va sa'y-harakat belgilashini ta'kidlaydi. Charles Dikensning “Oliver Twist” romanida uchraydigan “A man is known by his work” paremiyasi ham xuddi shu mazmunni ifodalab, ingliz jamiyatida ham mehnat shaxsning ijtimoiy bahosini belgilovchi asosiy omil ekanini ko'rsatadi. Leksik birliklarning farqli bo'lishiga qaramay, har ikkala paremiya bitta umumiy semantik xususiyatni, ya'ni shaxsni mehnati orqali tanish g'oyasini ifodalaydi. Shuningdek, inson xarakterining muhit bilan uzviy bog'liqligi mavzusi ham ikki romanda o'xshash paremiyalar orqali ochib beriladi. Abdulla Qodiriy asaridagi “Odam bolasi suvday, qaysi tomonga solsang - oqadi” paremiyasi inson shaxsiyati tug'ma emas, balki tarbiya va atrof-muhit ta'sirida shakllanishini obrazli tarzda ifodalaydi. Charles Dikens romanida uchraydigan “People are shaped by their surroundings” paremiyasi esa ushbu g'oyani abstrakt leksika vositasida ifodalaydi. Natijada har ikki asarda inson xakteri jamiyat mahsuli sifatida talqin qilinadi.

Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanida paremiyalar milliy tafakkur va ijtimoiy munosabatlarni yorituvchi muhim leksik-semantik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, “Teng tengi bilan, tezak qopi bilan” paremiyasi jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanishni obrazli ifodalaydi. Ushbu paremiya tarkibidagi teng leksik birligi insonlarning o'ziga mos tabaqa vakillari bilan aloqada bo'lishga moyilligini bildirsa, tezak qopi birligi esa past ijtimoiy mavqeni ramziy tarzda ifodalab, jamiyatdagi ijtimoiy tafovutni keskin va tanqidiy ohangda ochib beradi. Natijada paremiya ijtimoiy muhitdagi noaniq va murakkab munosabatlarni badiiy umumlashtirish vazifasini bajaradi. Roman matnida uchraydigan yana bir muhim paremiya - “Yotib qolguncha, otib qol” iborasi insonni

sustkashlikdan voz kechib, faol harakat qilishga undovchi semantik mazmunga ega⁸. Bu yerda yotib qolmoq fe‘li harakatsizlik va loqaydlikni, otib qolmoq esa tezkorlik va tashabbuskorlikni ifodalab, paremiya tarkibida semantik ziddlik hosil qiladi.

Charles Dickensning “Oliver Twist” romanida esa paremiyalar inson ruhiyatidagi ichki kurash va kelajakka bo‘lgan ishonchni aks ettiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Asarda uchraydigan “I cannot stop some dreadful things I try to stop, but I go on in the hope and trust that the time will come”⁹. “To‘xtatmoqchi bo‘lgan ayrim dahshatli voqealarni to‘xtata olmayman, ammo baribir kelajakda yaxshi kunlar kelishiga umid va ishonch bilan yashayman.” Bu paremiya qahramon ruhiyatidagi ojizlik va umid o‘rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi. Cannot stop birikmasi chorasizlikni anglatga, hope, trust hamda the time will come birliklari kelajakka ishonchni bildiruvchi semantik ma‘noni ifodalaydi.

Xulosa

Paremiyalar nasriy matnda muallif g‘oyasini ixcham va ta‘sirchan ifodalovchi muhim leksik-semantik vosita hisoblanadi. Ular axloqiy qadriyatlar, inson xarakteri, mehnatga munosabat hamda ijtimoiy munosabatlarni obrazli tarzda yoritib, matnning badiiy va tarbiyaviy qiymatini oshiradi. Paremiyalarni tahlil qilish badiiy asarning mazmuniy qatlamlarini chuqur anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, 1934.
2. Charles Dickens. Oliver Twist. – London: Chapman & Hall, 1838.
3. Xolto‘rayeva D.B., Urinova T. Methods of translating the proverbs in the work of “The Past Days” by Abdulla Qadiri into English language // Eurasian Journal of Technology and Innovation. – Vol. 2, Issue 5, May 2024. – P. 62. – ISSN 2181-2020.
4. Karimov I.A. O‘zbek adabiy tili nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2010. – 240 b.
5. Pirmatova Dilorom Ulug‘bek qizi. O‘zbek tilshunosligida terminologiya masalasining o‘rganilishi // Ilm-fan va innovatsiya: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2019.

⁸ Xolto‘rayeva D.B., Urinova T. Methods of translating the proverbs in the work of “The Past Days” by Abdulla Qadiri into English language // Eurasian Journal of Technology and Innovation. – Vol. 2, Issue 5, May 2024. – P. 62. – ISSN 2181-2020

⁹ Quotes From Charles Dickens's 'Oliver Twist' <https://share.google/Eq7JJDT81m3n1pKu4>